

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni va u bilan tasdiqlangan Davlat dasturi bajarilishi yuzasidan

TAHLILY MA'LUMOT

T/r	Amalga oshiriladigan tadbir	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Amalga oshirilgan ishlar, tayyorlangan hujjat loyihalari
FARMON				
1.	<p>2024-yil 1-martdan boshlab alohida ishlash talab etiladigan, shuningdek, iste'dodli va iqtidorli yoshlar Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi qarori bilan "Yoshlar balansi" asosida vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar hamda oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlariga biriktirilsin. Bunda:</p> <p>mazkur rahbarlar har oyda kamida bir marotaba o'zlariga biriktirilgan yoshlar bilan uchrashib, ularning muammolarini hal qilish va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga o'qitish orqali bandligini ta'minlash, hayotda o'z o'rini topishi, shuningdek huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga har tomonlama ko'maklashib borsin;</p> <p>o'zlariga biriktirilgan yoshlar muammolarini hal qilish va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun tegishli tashkilotning byudjetdan tashqari mablag'lari va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan zarur mablag'larni Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartib asosida yo'naltirishga ruxsat etilsin.</p> <p>Mazkur bandning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi, Yoshlar ishlari agentligi (A.Sa'dullayev) hamda yoshlar biriktirilgan vazirlik va idoralar belgilansin.</p> <p style="color: red;">Farmonning 1-bandi.</p>	Har oy yakunida	Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi, Yoshlar ishlari agentligi A.Sa'dullayev, Vazirlik va idoralar	<p>BAJARILMOQDA.</p> <p>2024-yilda Maktabgacha va maktab ta'limi vaziriga Toshkent shahar Bektemir tumanidagi "Nurafshon", "Musaffo" hamda "Oltintopgan" mahallalardan "Og'ir toifa"ga kiritilgan 28 nafar yoshlar biriktirildi.</p> <p><i>Ma'lumot uchun:</i> ularning 3 nafari agressiv xulqli, 1 nafari Giyohvand va psixotrop moddalarini iste'mol qiluvchi, 6 nafari muntazam dars qoldiruvchi, 2 nafari notinch oila farzandi, 6 nafari probatsiya hisobda turuvchi, 4 nafari profilaktik hisobda turuvchi, 5 nafari migratsiyadan qaytib kelgan yoshlar hamda 2 nafari ajrim yoqasidagi yosh oila.</p> <p>Bugungi kunga qadar, vazirlik rahbariyati tomonidan 28 nafar yoshning barchasi bilan uchrashuv tashkil etilib, ularga amaliy yordam ko'rsatildi.</p> <p>Jumladan, 6 nafar yoshga yuk tashishga mo'ljallangan elektrmotoroller, 13 nafariga kompyuter jamlanmasi, 2 nafariga tikuv mashinasi, 2 nafariga xususiy tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun 3x2 kvm yengil konstruksiyadan iborat do'kon olib beriladi.</p> <p>2 nafar yoshning farzandlari, jumladan, 1 nafari MTM 1 nafari umumta'lim maktabiga imtiyozli ravishda joylashtirildi.</p> <p>Shuningdek, 3 221 nafar mazkur toifadagi yoshlardan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining hududiy boshqarma boshliqlari va tuman (shahar) rahbarlariga biriktirilgan.</p> <p>Respublika ishchi guruhi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida otaliqqa olingan yoshlar bilan tizimli ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan o'rganishlar olib borildi.</p> <p>O'rganish davomida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi barcha tuman (shahar) bo'lumlari rahbarlariga biriktirilgan yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etilganligi hamda ularga ko'rsatilgan amaliy yordamlar tahlil qilindi.</p> <p><i>Ma'lumot uchun:</i> Qoraqalpog'iston Respublikasining tuman (shahar) rahbarlariga 205 nafar, Xorazm viloyatining tuman (shahar) rahbarlariga 322 nafar yoshlar biriktirilgan.</p> <p>Tahlillar natijasiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi biriktirilgan 527 nafar yoshlarning barchasi bilan uchrashuvlar tashkil etilganligi, shundan 96 nafar yoshda muammolar aniqlanib hozirgi kunga qadar ushbu yoshlarning muammolari ijobiy hal etilgan.</p> <p>Jumladan, 13 nafar yosh ishga joylashtirildi, 10 nafar yosh kasb-hunarga o'qitilish choralari ko'rildi, 4 nafar yoshga tadbirkorlik uchun kredit ajratildi,</p>

				29 nafariga oziq-ovqat mahsulotlari olib berildi. Topshiriqqa muvofiq, har oyda bir marotaba uchrashuvlar o'tkazilib kelinmoqda.
2.	Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi doirasida 2024-yilda: Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning bilimlarni baholash tizimi qo'shimcha 1 000 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy qilinib, fanlardagi amaliy mashg'ulotlar ulushi 60 foizgacha oshirilsin. <i>Farmonning 11.1-bandi.</i>	2024-yil dekabr	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi X.Umarova	BAJARILMOQDA. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 13-maydagi 156-son buyrug'i 1-ilovasi bilan belgilangan tartib asosida qo'shimcha 1 000 ta maktab ro'yxati shakllantirildi. 2024/2025-o'quv yilidan boshlab bilimini baholashning yangi tartibi asosida 1 500 ta umumta'lim maktabida joriy etildi. (26.08.2024-y. 275-son buyruq) Ma'lumot uchun: Qoraqalpog'iston Respublikasida 44 ta, Andijonda 56 ta, Buxoroda 128 ta, Jizzaxda 31 ta, Qashqadaryoda 37 ta, Navoiyda 40 ta, Namanganda 56 ta, Samarqandda 50 ta, Sirdaryoda 38 ta, Surxondaryoda 45 ta, Farg'onada 71 ta, Toshkent viloyatida 38 ta, Xorazmda 121 ta, Toshkent shahrida 237 ta
3.	2024/2025 o'quv yilidan boshlab: Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining 1 tadan tumanida (shahrida) sinov tariqasida "Mening maktabim" loyihasi amalga oshirilsin hamda buning doirasida Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan maktablarga bazaviy hisoblash miqdorining 150 barobarida mablag' ajratilib, ushbu mablag'5-11-sinf o'quvchilari tanloviga ko'ra, elektron doska, kompyuter, sport jihozlari, kitoblar kabi maktablar uchun zarur tovarlarga sarflanishi belgilansin; Mazkur bandning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ul etib Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X.Umarova) belgilansin. <i>Farmonning 12.1.1a -bandi.</i>	2024/2025-o'quv yilidan boshlab	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi X.Umarova	BAJARILMOQDA. Topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda "Mening maktabim" loyihasini amalga oshirish yuzasidan vaqtinchalik nizom loyihasi ishlab chiqilib, takomillashtirish ishlari amalga oshirilmogda. Shu bilan birga, Iqtisodiyot va moliya hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirliklarining 2024-yil 30-avgustdagi 06/23/12-sonli va 05-41-2847-sonli qo'shma xatlari bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Hisob Palatasi, Adliya vazirligiga axborot kiritilgan.
4.	Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlarini menejerlik bo'yicha sertifikatsiyalash tizimi joriy etilsin. Bunda, direktorlarga malakaviy talablar aniq belgilanib, ular har besh yilda bir marotaba attestatsiyadan o'tkazilsin. <i>Farmonning 12.1.2a -bandi.</i>	2024-yil sentabr muddat uzaytirilgan 2024-yil 26-dekabr	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi X.Umarova	BAJARILMOQDA. 2024-yil 1-yanvardan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlarini har besh yilda bir marotaba kasbiy sertifikatsiyalash tizimi joriy etildi shuningdek, umumiy o'rta ta'lim muassasasi direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish hamda maxsus portal orqali ularga menejerlik sertifikatini elektron shaklda berish tizimini joriy etish maqsadida manager.uzedu.uz platformasi ishga tushirildi. Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarini menejerlik o'quv kurslarida o'qitish reja-taqsimotiga asosan, 2024-yilda 1 000 nafar amaldagi maktab direktorini " Menejerlik o'quv kursi "da o'qitish rejalashtirilgan bo'lib, 684 nafar amaldagi direktor o'qitildi. Shundan, 411 nafari (60 foiz) yakuniy sinovdan muvaffaqiyatli o'tib, menejerlik sertifikatiga ega bo'ldi. Shuningdek, 1 323 nafar direktor lavozimiga nomzod " Menejerlik o'quv kursi "da o'qitildi. 963 nafari (72 foiz) yakuniy sinovdan muvaffaqiyatli o'tib, menejerlik sertifikatiga ega bo'ldi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan 2024-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejalari ijrosi to‘g‘risida

TAHLILIY MA‘LUMOT

T/r	Vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Ijro uchun mas’ullar	Ijro holati
I. HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQRISHI UCHUN MUNOSIB SHAROITLARNI YARATISH						
1-maqсад: Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash						
1.	Maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasini 76 foizga yetkazish. <i>1-ilova 1-band</i>	1. 1 400 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi, shu jumladan oilaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish. 2. Investitsiya dasturi doirasida 43 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qurish va 133 ta rekonstruksiya qilish orqali 5 570 ta qo‘shimcha yangi quvvatlar yaratish. 3. 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi bilan qamrov darajasini 96 foizga yetkazish.	2024-yil yakuniga qadar	Davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi X.Umarova, Iqtisodiyot va moliya vazirligi O.Fozilkarimov	BAJARILMOQDA. 1. 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 3 058 ta yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etilib, ularga 110 508 nafar bolalar qabul qilindi. Natijada, bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi 75,0 foizga yetkazildi. Bunda: 73 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga 7 078 nafar; 57 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga 4 272 nafar; 10 ta xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotlariga 415 nafar; 4 491 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga 157 185 nafar bolalar qamrab olindi. 2. Investitsiya dasturi doirasida qurilish-ta’irlash ishlari olib borilayotgan 176 ta obyektдан 50 tasi foydalanishga topshirildi. Qolgan obyektlarda qurilish-ta’irlash ishlari olib borilmoqda. 3. 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlov tizimi bilan qamrov darajasini oshirish maqsadida joriy yilning yanvar-oktabr oylarida 17 115 nafar bolalar uchun yangi o‘rinlar yaratildi. Bunda: 135 ta qisqa muddatli guruhlariga 3 375 nafar; 78 ta to‘liq kunlik guruhlariga 2 340 nafar; 380 ta majburiy tayyorlov guruhlariga 11 400 nafar bola qamrab olindi.
2	Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuter guruhlarini tashkil etish. <i>1-ilova 2-band.</i>	170 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarida zamonaviy ta’lim planshetlari va sensorli ekranli interaktiv doskalardan iborat kompyuter guruhlarini tashkil etish uchun texnikalar xarid qilish.	2024-yil yakuniga qadar	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga respublika byudjetidan ajratilgan mablag‘lar	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi X.Umarova, Iqtisodiyot va moliya vazirligi O.Fozilkarimov	BAJARILMOQDA. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan xarid qilinadigan jihozlarning texnik tavsifi ishlab chiqilib, “2024-yilda kompyuter texnikalari (planshetlar va interaktiv doskalar) bilan jihozlanishi rejalashtirilgan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining manzilli

				doirasida		<p>ro'yxati" (Maktabgacha ta'lim agentligining 2024-yil 19-yanvardagi 6-sonli buyrug'i) tasdiqlandi.</p> <p>Shuningdek, Vazirlik huzuridagi "Ta'minot va logistika xizmati" DUK tomonidan 170 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarida zamonaviy ta'lim planshetlari va sensorli ekranli interaktiv doskalardan iborat kompyuter guruhlarini tashkil etish uchun texnikalar xarid qilish maqsadida bozor narxlari o'rganib chiqilib, xarid jarayonlari amalga oshirilmoqda.</p>
2-maqсад: Umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish						
3	<p>Yangi maktablarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish hamda ularda zarur shart-sharoitlarni yaratish.</p> <p><i>1-ilova 3-band.</i></p>	518 ta maktabni rekonstruksiya qilish va 30 ta maktabni yangidan barpo etish orqali 175 ming o'quvchi o'rmini yaratish.	2024-yil yakuniga qadar	Respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi</p> <p>I. Norkulov, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi</p> <p>B. Zakirov, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p> <p>X. Umarova</p>	<p>BAJARILMOQDA.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-404-son qaroriga asosan jami 608 ta umumta'lim obyektlarda qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish belgilangan.</p> <p>Mazkur ishlar uchun davlat byudjetidan 4,1 trl. so'm mablag' yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.</p> <p>Bunda, 30 ta yangi maktab qurish, 518 ta maktabni rekonstruksiya qilish va 60 ta maktablarni mukammal ta'mirlash ishlari bajarilib, natijada 180 mingdan ortiq yangi o'quvchi o'rinlari yaratilsa, mavjud 101,7 mingta o'quvchi o'rinli binolar mukammal ta'mirlanadi hamda 95 ta yangi sport zali binolari barpo etiladi.</p> <p>Bugungi kunga kelib, yildan-yilga o'tuvchi 37 ta obyektlarda Andijon, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyalari buyurtmachiligida qurilish ta'mirlash ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Mazkur obyektlardan 35 tasida qurilish ishlari yakuniga yetkazilib foydalanishga topshirilgan.</p> <p>Bundan tashqari, yangidan boshlanuvchi 571 ta obyektlarda qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlariga Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzurida tashkil etilgan "Infratuzilmani rivojlantirish" injiniring kompaniyasi DM buyurtmachi etib belgilangan.</p> <p>Bugungi kunda, 201 ta obyektida qurilish ishlari yakuniga yetkazilib foydalanishga topshirilgan, 301 tasi 1-noyabrga qadar, 69 tasi 10-dekabrga qadar yakuniga yetkazilib, foydalanishga topshirilishi ko'zda tutilgan.</p>

4	<p>Umumiy o'rtta ta'lim maktablarini mebel, o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari, sport anjomlari va texnik vositalar bilan ta'minlash.</p> <p>1-ilova 4-band.</p>	<p>1. Umumiy o'rtta ta'lim muassasalarini birlamchi sport jihozlari va milliy musiqa cholg'u asboblari bilan ta'minlash bo'yicha manzilli dasturni ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. Tasdiqlangan dasturga asosan birlamchi sport jihozlari va milliy musiqa cholg'u asboblarini belgilangan tartibda xarid qilish.</p> <p>3. Umumta'lim maktablaridagi 2 200 ta ma'nan eskirgan kompyuter sinflarini yangilash.</p>	<p>2024-yil mart</p> <p>2024-yil yakuniga qadar</p> <p>2024-yil avgust</p>	<p>Respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida</p>	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi X. Umarova, "O'quv ta'lim-ta'minot" DUK Iqtisodiyot va moliya vazirligi I. Norkulov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari</p>	<p>BAJARILDI.</p> <p>1. Respublikadagi 10 160 ta maktabga birlamchi sport jihozlari va milliy musiqa cholg'u asboblari bilan ta'minlash bo'yicha manzilli dastur ishlab chiqilib, tasdiqlandi. (03.01.2024-y. 1-son buyruq, 15.03.2024-y. 05-31-448-sonli xat)</p> <p>2. Vazirlik huzuridagi "Ta'minot va logistika xizmati" DUK tomonidan o'tkazilgan tender savdolari natijasida g'olib bo'lgan korxonalar bilan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - birlamchi sport jihozlari yetkazib berish bo'yicha 61,8 mlrd. so'mlik shartnomalar imzolanib, to'liq moliyalashtirilgan; - milliy musiqa cholg'ularini xarid qilish maqsadida, 46,0 mlrd. so'mlik shartnoma imzolanib, to'liq moliyalashtirilgan. <p>Bugungi kunda, barcha 10 160 ta maktabga birlamchi sport jihozlari hamda milliy cholg'u asboblari yetkazib berildi.</p> <p>3. Maktablardagi ma'nan eskirgan kompyuter sinflarini yangilash bo'yicha vazirlikning 2024-yil 3-yanvardagi 1-son buyrug'i qabul qilingan.</p> <p>Hududlardagi ma'nan eskirgan kompyuter sinflari yangilanadigan 2 200 ta maktab ro'yxati tasdiqlandi.</p> <p>Bugungi kunda, 2 213 ta maktabga kompyuter sinflari yetkazilib, o'rnatildi.</p> <p>Ma'lumot uchun: 1 369 tasi respublika, 844 tasi mahalliy budjet hisobidan moliyalashtirilgan.</p>
5	<p>Olis va chekka hududlarda joylashgan umumiy o'rtta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo'lga qo'yish.</p> <p>1-ilova 6-band.</p>	<p>Olis va chekka hududlarda joylashgan umumiy o'rtta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun eksperiment tariqasida bepul avtobuslarni yo'lga qo'yish natijalari bo'yicha ushbu amaliyotni boshqa hududlarda ham joriy etish yuzasidan asoslantirilgan takliflarni ishlab chiqish.</p>	<p>2024-yil oktabr</p>	<p>-</p>	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi X. Umarova</p>	<p>BAJARILDI.</p> <p>Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan olis va chekka hududlarda joylashgan umumiy o'rtta ta'lim maktablari va ulardagi o'quvchilar soni to'g'risidagi ma'lumotlar tayyorlandi, tegishli viloyat hokimliklari va transport vazirligiga taqdim etildi.</p> <p>Qashqadaryo viloyat hokimligining axborotiga asosan (7.10.2024-y. 07-07/9087-son) joriy yilning sentabr oyidan boshlab viloyatning olis va chekka hududlarda joylashgan 50 ta maktabning 6433 nafar o'quvchilarini avtobusda bepul qatnovi yo'lga qo'yilgan. Buning uchun mahalliy budjetdan 212,9 mln so'm hamda viloyat hokimining 2024-yil 18-sentabrdagi 431-4-0-Q/24-son qaroriga asosan zaxira mablag'lari hisobidan 200,0 mln so'm mablag'</p>

					<p>ajratilgan.</p> <p>Ma'lumot uchun: G'uzor tumanida 5 ta (25-,35-,39-,46-,78-sonli) maktabdan 166 nafar, Dehqonobod tumanida 8 ta (6-,14-,15-, 28-,48-,49-,52-,83-sonli) maktabdan 365 nafar, Kitob tumanida 1 ta (68-sonli) maktabdan 329 nafar, Ko'kdala tumanida 6 ta (33-,35-,58-,89-,90-,95-sonli) maktabdan 1189 nafar, Qamashi tumanida 6 ta (30-,60-,75-,78-,85-,87-sonli) maktabdan 473 nafar, Qarshi tumanida 2 ta (60-,62-sonli) maktabdan 59 nafar, Mirishkor tumanida 3 ta (22-,23-,24-sonli) maktabdan 767 nafar, Chiroqchi tumanida 5 ta (51-,53-,54-,59-, 109-sonli) maktabdan 961 nafar, Shahrisabz tumanida 1 ta (80-sonli) maktabdan 95 nafar, Yakkabog' tumanida 1 ta (46-sonli) maktabdan 160 nafar, Koson tumanida 9 ta (22-,35-,36-,39-,40-,43-,45-,46-,99-sonli) maktablardan 1869 nafar o'quvchilar bugungi kunda bepul avtobuslar qatnovi bilan qamrab olingan.</p> <p>Shu kabi, Surxondaryo viloyat hokimligining (9.10.2024-y. 07-07/7913-son) axborotiga asosan, joriy yilning sentabr oyidan viloyatning olis va chekka hududlarida joylashgan 50 ta maktablarning 4210 nafar o'quvchilarni avtobusda bepul qatnovi yo'lga qo'yilgan. Buning uchun mahalliy byudjetdan 272 mln mablag' ajratilib o'quvchilarga bepul xizmat ko'rsatish ishlari olib borilmoqda.</p> <p>Ma'lumot uchun: Angor tumanida 6 ta (4-,10-,14-,17-,30-,31-sonli) maktabdan 505 nafar, Boysun tumanida 3 ta (37-,42-,45-sonli) maktabdan 113 nafar, Bandixon tumanida 4 ta (18-,28-,62-,65-sonli) maktabdan 173 nafar, Denov tumanida 5 ta (58-,60-,62-,65-,94-sonli) maktabdan 504 nafar, Jarqo'rg'on tumanida 2 ta (38-,48-sonli) maktabdan 430 nafar, Muzrabot tumanida 1 ta (22-sonli) maktabdan 64 nafar, Oltinsoy tumanida 6 ta (10-,12-,14-,15-,16-,47-sonli) maktabdan 278 nafar, Sariosiyo tumanida 5 ta (19-,20-,22-,28-,31-sonli) maktabda 705 nafar, Termiz tumanida 2 ta (18-,32-sonli) maktabdan 435 nafar, Uzun tumanida 3 ta (35-,36-,45-sonli) maktabdan 99 nafar, Sho'rchi tumanida 5 ta (17-,18-,34-,41-,60-sonli) maktabdan 388 nafar, Sherobod tumanida 5 ta (16-,41-,46-,65-,74-sonli) maktabdan 322 nafar, Qiziriq tumanida 2 ta (30-,45-sonli) maktabdan 168 nafar, Qumqo'rg'on tumanida 1 ta</p>
--	--	--	--	--	---

						<p>(22-sonli) maktabdan 26 nafar o'quvchilar maktablarga avtobuslarda qatnashni boshladi.</p> <p>Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining olis va chekka hududlarida joylashgan maktablarda avtobus qatnovining yo'lga qo'yilishi natijasi 8 700 nafar o'quvchining dars mashg'ulotlari 1-smena o'tkazildi, o'quvchilarning darsga kechikib kelishini oldi olindi, davomat yaxshilandi.</p>
3-maqсад: Umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish						
6	<p>Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini amaliyotga kiritish.</p> <p><i>1-ilova 8-band.</i></p>	<p>1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida uchun 131 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblarini yaratish.</p> <p>2. O'qituvchilarning yangi metodikalar bo'yicha malakasini oshirib borish.</p> <p>3. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarida kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan "soft skilz" ko'nikmalariga bag'ishlangan mavzular o'tilishini yo'lga qo'yish yuzasidan takliflarni kiritish.</p>	<p>2024-yil dekabr</p> <p>2024-yil may</p>	<p>Respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida</p>	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p> <p>X. Umarova, Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi</p>	<p>BAJARILMOQDA.</p> <p>1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida uchun 132 nomdagi yangi yaratilgan darsliklar majmualari chop etilmoqda.</p> <p>Joriy yilning iyun oyi holatiga jami 40,9 mln nusxa darsliklar chop etilib, "Ta'minot va logistika xizmati" DUK tomonidan hududiy filiallarga yetkazildi.</p> <p>2. Pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining tayanch o'quv rejaları va namunaviy o'quv dasturlari ishlab chiqilib Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 15-dekabrda 70-xdfu-son buyrug'i bilan tasdiqlangan.</p> <p>Yangi metodikalar bo'yicha ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha 365 948 nafar pedagog va kadrlarning malakasi oshirildi.</p> <p>BAJARILDI.</p> <p>3. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarida kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan "soft skilz" ko'nikmalariga bag'ishlangan mavzular o'tilishini yo'lga qo'yish yuzasidan vazirlik takliflari Vazirlar Mahkamasiga kiritildi. (14.05.2024-y. 03-24-648-sonli xat)</p> <p>Hozirgi kunda boshlang'ich sinflar hamda 5-sinflar uchun mo'ljallangan darsliklar yangicha yondashuv asosida shaxsiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mavzular bilan boyitildi.</p>
4-maqсад: Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish						
8	<p>Pedagoglarni xorijiy davlatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish.</p> <p><i>1-ilova 10-band.</i></p>	<p>1. Tasdiqlangan reja asosida 100 nafar davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining pedagoglarini xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish yoki stajirovkaga yuborish uchun hududlar kesimida teng</p>	<p>2024-yil iyun</p>	<p>Vazirlikning byudjetidan tashqari mablag'lari hisobidan</p>	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p> <p>X. Umarova, "El-yurt umidi" jamg'armasi A.Bekmurodov,</p>	<p>BAJARILDI.</p> <p>1. Malaka oshirish va stajirovkaga o'qituvchilarni tanlab olish uchun Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining tegishi buyrug'i (02.05.2024-y., 139-son) tasdiqlandi. Buyruqqa asosan 4 bosqichli saralash tashkil etildi.</p>

		<p>taqsimlangan holda saralab olish.</p> <p>2. "El-yurt umidi" jamg'armasi ko'magida saralab olingan pedagoglarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish.</p>	<p>2024-yil avgust</p> <p>Muddat uzaytirilgan 2024-yil 25-oktabr</p>		<p>Tashqi ishlar vazirligi B.Saidov</p>	<p>2. O'tkazilgan saralash sinovlari orqali 1 419 nafar o'qituvchi orasidan 120 nafari (Fransiya) tanlab olinib, Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda 45 soatga mo'ljallangan malaka oshirish kurslarida o'qitildi.</p> <p>Shuningdek, 32 nafar (Rossiya va Belorussiya) OTMning professor-o'qituvchilari malaka oshirishga yuborildi.</p> <p>19 nafar pedagog xodim (Turkiya va Xitoy) malaka oshirishga yuborildi.</p> <p>Ma'lumot uchun: 2024-yilning 7 oyida jami 171 nafar pedagog va mas'ul xodimlar Fransiya, Xitoy, Turkiya, Belorussiya va Rossiya Federatsiyasiga malaka oshirishga yuborildi.</p>
9	<p>Pedagoglarni ishga qabul qilish jarayonini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish, ularning darslarni o'z vaqtida va sifatli o'tishini qat'iy ta'minlash.</p> <p>1-ilova 11-band.</p>	<p>1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi-pedagog kadrlarni psixologik metodika va testlar orqali saralash mexanizmlarini ishlab chiqib, ularni joriy etish yuzasidan takliflar kiritish.</p> <p>2. Maktablarda darslarni o'z vaqtida va yuqori saviyada o'tkazilishi, darslarning asossiz qoldirilishi holatlarining oldini olish choralarini ko'rish va dars jadvalariga amal qilinishini qat'iy ta'minlash.</p>	<p>2024-yil 1-iyun</p> <p>Doimiy</p>	–	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi X. Umarova</p>	<p>BAJARILDI.</p> <p>1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi-pedagog kadrlarni psixologik metodika va testlar orqali saralash mexanizmlari va ularni joriy etish yuzasidan takliflar Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.</p> <p>(20.05.2024 y. 02/1-49-sonli xat)</p> <p>BAJARILMOQDA.</p> <p>2. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 26-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2024-2025-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi 94-son buyrug'i tasdiqlangan.</p> <p>Mazkur buyruqning 1 va 2-illovalariga muvofiq o'zbek, rus va qardosh tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2024-2025-o'quv yilida mo'ljallangan tayanch o'quv rejasiga muvofiq dars soatlari taqsimlanadi va maktab direktori tomonidan tasdiqlanishi belgilangan.</p> <p>Shuningdek, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 31-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining takomillashtirilgan namunaviy odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 282-son buyrug'i tasdiqlangan.</p> <p>Mazkur buyruqning 1 va 2-illovalari bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalardagi o'quvchi va pedagog xodimlar tanishtirilib, ushbu qoidalarga qat'iy amal qilinishi yuzasidan til xatlar olingan.</p> <p>Bundan tashqari, "Maktabgacha va maktab</p>

						<p>ta'limi vazirining 2023-yil 20-dekabrda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy maktabgacha va maktab ta'limi bo'linmalari nizomlari hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining lavozim yo'riqnomalarining yangi tahririni tasdiqlash to'g'risida"gi 565-son buyrug'i tasdiqlangan.</p> <p>Ushbu buyruqning 37-ilovaga muvofiq umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) xodimlarining lavozim majburiyatlarida vazifasi belgilab berilgan. Mazkur lavozim yo'riqnomasiga amal qilgan holda ish jarayonini tashkil etadi.</p> <p>O'tgan 2024/2025-o'quv yilining 1-choragida respublika miqyosida jami 1 mingdan ortiq pedagoglarga darslarni yuqori saviyada tashkil qilganligi va o'quvchilari erishgan yutuqlari uchun direktor jamg'armasi hisobidan 15% dan 40% gacha bo'lgan miqdorda moddiy rag'batlantirilgan.</p> <p>Shu bilan birgalikda, 300 dan ortiq pedagog xodimga nisbatan ishga kechikib kelganligi va darslarni asossiz qoldirganligi sababli intizomiy jazo choralari qo'llanilgan.</p>
5-maqсад: Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish						
10	<p>Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari qamrovini kengaytirish.</p> <p><i>1-ilova 13-band.</i></p>	<p>1. Nodavlat umumta'lim tashkilotlari sonini 470 taga yetkazish.</p> <p>2. Nodavlat umumta'lim tashkilotlari faoliyatini tahlil qilib borish.</p>	2024-yil yakuniga qadar	Respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p> <p>X. Umarova, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari</p>	<p>BAJARILDI.</p> <p>1. 2024-yil oktabr oyiga qadar 95 ta nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tashkil etilib, ularning soni 553 taga yetkazildi. Natijada, qo'shimcha 9 500 ta o'quvchi o'rni, shuningdek, 850 ta yangi ish o'rini yaratildi.</p> <p>Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Adliya vazirligiga axborot kiritildi. (12.08.2024-y. 06-21-1935-sonli xat)</p> <p>BAJARILMOQDA.</p> <p>2. Nodavlat umumta'lim tashkilotlari faoliyatini tahlil qilib borilmoqda.</p> <p>Joriy yilning oktabr oyiga qadar 65 ta nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyati o'rganildi. Shundan, tasdiqnoma va litsenziyasiz faoliyat olib borayotganligi uchun, 10 ta nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotiga BHMning 200 baravari miqdorida jarima qo'llanildi.</p>

23-maqсад: Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratish						
11	<p>Jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan iliq ijtimoiy muhitni shakllantirish.</p> <p><i>1-ilova 58-band.</i></p>	<p>1. Ijtimoiy media-strategiyaga taklif berish.</p> <p>2. Televideniye, radio, filmlar va ko'ngilochar dasturlarga nogironligi bo'lgan shaxslarni keng jalb qilish.</p> <p>3. Nogironligi bo'lgan iqtidorli shaxslar timsolida media mahsulotlar tayyorlash hamda OAV va Internet tarmog'ida keng ko'lamda yoritish.</p>	<p>2024-yil may doimiy</p> <p>2024-yil avgust</p>	<p>Hisob-kitoblarga asosan respublika byudjetidan Ijtimoiy himoya milliy agentligiga ajratilgan mablag'lar va mahalliy byudjet mablag'lari</p>	<p>Madaniyat vazirligi O.Nazarbekov, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi A.Xodjayev, Milliy teleradiokompaniya A.Djurabayev, Ijtimoiy himoya milliy agentligi M.Olloyorov, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi X.Umarova, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi K.Sharipov</p>	<p>BAJARILDI.</p> <p>1. Ijtimoiy media-strategiyasini ishlab chiqish uchun Madaniyat vazirligiga vazirlikning takliflari yuborilgan. (20.03.2024, 06-14-221-sonli xat)</p> <p>BAJARILMOQDA.</p> <p>Vazirlik tizimidagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan ta'lim muassasalarida hamda inklyuziv maktablarda tahsil olayotgan nogironligi bo'lgan o'quvchilarga ta'lim olishdagi yaratilayotgan sharoitlar, iqtidorli o'quvchilarning hayotini televideniye va boshqa OAVlarda keng yoritib borish yuzasidan vazirlikning Ijtimoiy media-rejasi ishlab chiqildi. Ushbu rejaga binoan, fevral-avgust oylari davomida 51 marotaba televideniya ("Sevimli" telekanalining "Oramizdagi odamlar" ko'rsatuvi, "O'zbekiston-24" telekanalining "Axborot" dasturida "Tashabbus va ijro: "Nurli maskan" maktab-internati", Navoiy MTRK"ning "Imkoniyat" dasturida Navoiy viloyatidagi "Nurli maskan", "Mahalla" telekanalining "Minbar" dasturi, gazeta.uz saytida (https://www.gazeta.uz/uz/2024/09/09/school/) hamda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalar faoliyati va boshqa respublika va hududiy telekanallarda) 72 marotaba ijtimoiy tarmoqlarda yoritildi.</p>
12	<p>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish.</p> <p><i>1-ilova 61-band.</i></p>	<p>1. Xalqaro tajriba asosida ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya maktablari, maktab-internatlar, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlash.</p> <p>2. Nogironligi bo'lgan bolalarni parvarishlash bo'yicha ota-onalarni o'qitish dasturlariga taklif kiritish.</p>	<p>2024-yil avgust</p> <p>2024-yil dekabr</p>	<p>–</p>	<p>Ijtimoiy himoya milliy agentligi M.Olloyorov, Sog'liqni saqlash vazirligi A.Xudayarov, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi X.Umarova, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi K.Sharipov</p>	<p>BAJARILDI.</p> <p>1. Topshiriqqa muvofiq, xorijiy tajriba o'rganib chiqildi va ushbu tajriba asosida ishlab chiqilgan takliflar vazirlikning 2024-yil 6-avgustdagi 04-28-1970-sonli xati bilan Ijtimoiy himoya agentligiga yuborildi.</p> <p>Shuningdek, Respublika o'quv-tarbiya muassasalari muassasalar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi (project.gov.uz) orqali Ichki ishlar vazirligi tomonidan kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qaror loyihasi (ID-94322; 2024-yil, fevral) hamda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining</p>

						<p>“Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam va reabilitatsiya xizmati ko‘rsatilishini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasiga (ID-98121) vazirlikning takliflari (23.02.2024-yildagi 01-28-16-sonli va 02.05.2024-yildagi 01-28-162-sonli) taqdim etildi.</p> <p>2. BAJARILMOQDA.</p> <p>Nogironligi bo‘lgan bolalarni parvarishlash bo‘yicha ota-onalarni o‘qitish dasturlariga taklif ishlab chiqilmoqda.</p>
30-maqсад: Yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o‘qitish tizimini yaratish						
14	<p>Xalqaro imtihon tizimlarida chet tillari va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha yuqori ball olgan yoshlarning imtihon xarajatlarini qoplab berish.</p> <p><i>1-ilova 82-band.</i></p>	<p>1. Xalqaro imtihon tizimlarida chet tillari va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha yuqori ball olgan 6 ming nafar yoshlarning imtihon xarajatlarini qoplab berish.</p> <p>Bunda, chet tillarini o‘qitishga ixtisoslashgan nodavlat ta‘lim muassasalarini qo‘llab-quvvatlash, mavjud nodavlat ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish.</p> <p>2. Xalqaro imtihon tizimlarida chet tillari va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha yuqori ball olgan yoshlarga respublika hududida faoliyat yuritayotgan xorijiy tashkilotlarda stajirovka o‘tashni tashkil etish bo‘yicha ko‘maklashish.</p>	2024 yil davomida	Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi	<p>Yoshlar ishlari agentligi</p> <p>A.Sa‘dullayev, Iqtisodiyot va moliya vazirligi</p> <p>I.Norkulov, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>K.Sharipov, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi</p> <p>X.Umarova</p>	<p>BAJARILMOQDA.</p> <p>Joriy yilning sentabr oyiga qadar Yoshlar ishlari agentligi mablag‘lari hisobidan 24,1 mlrd so‘m mablag‘ ajratish orqali 12 339 nafar yoshning xalqaro imtihon topshirish xarajatlari qoplab berildi.</p> <p>Mazkur band ijrosini ta‘minlashda hamkorlik bo‘yicha Yoshlar ishlari agentligiga vazirlikning rasmiy xati yuborildi. (11.03.2024, 03-25-333-sonli xat).</p>
31-maqсад: Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish						
15	<p>Ilmiy va innovatsion faoliyat, intellektual o‘yinlar hamda chet tillarini o‘rganishga jalb etish orqali yoshlarning iqtidorini rivojlantirish.</p> <p><i>1-ilova 83-band.</i></p>	<p>Ilmiy va innovatsion faoliyat, intellektual o‘yinlar hamda chet tillarini o‘rganishga jalb etish orqali 800 ming nafar yoshlarning iqtidorini rivojlantirish.</p> <p>Bunda: “Zakovat”, “Shaxmat”, “Munozara” va boshqa shu kabi intellektual o‘yinlarga yoshlarni jalb etish;</p> <p>chet tillarini ommalashtirishga ko‘maklashuvchi “Ibrat farzandlari” loyihasini rivojlantirish va uning</p>	2024 yil davomida	Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi	<p>Yoshlar ishlari agentligi</p> <p>A.Sa‘dullayev, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>K.Sharipov, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi</p> <p>X.Umarova</p>	<p>BAJARILMOQDA.</p> <p>Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan Yoshlar ishlari agentligi hamda “Zakovat” NNT bilan hamkorlikda o‘quvchi-yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan “Intellektual maktab” mavsumiy oromgoh loyihasi o‘tkazildi.</p> <p>Mazkur loyihada umumta‘lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida tashkil etilgan “Zakovat” intellektual o‘yini hamda “O‘quvchilar ligasi”ning hududiy bosqichlari g‘oliblari va iqtidorli yoshlaridan iborat jami 145 nafar yoshlar ishtirok etdi.</p> <p>Milliy mass-mediani qo‘llab-quvvatlash va</p>

		<p>doirasida “Ibrat academy” mobil ilovani takomillashtirish, “Ibrat – tillar oromgohi”, “Xorijiy tillar marafoni”larini o‘tkazish;</p> <p>yangicha yondashuv asosida kitobxonlikni keng targ‘ib qilishga qaratilgan “Mutolaa” loyihasini amalga oshirish;</p> <p>yoshlarning innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ularning ilm-fan, ta‘lim va innovatsiya bilan shug‘ullanishlari uchun sharoitlar yaratish.</p>				<p>rivojlantirish jamoat fondi va “Zakovat intellektual klubi” NTT bilan hamkorlikda “Nurli maskan” maktab-internatlari o‘quvchilari o‘rtasida “Zakovat” intellektual o‘yini o‘tkazildi.</p> <p>Musobaqaning Respublika bosqichida hududiy sinovlarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan respublikadagi 17 ta jamoadan 102 nafar o‘quvchi qatnashdi.</p> <p>Yoshlar oyligi doirasida Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tizim xodimlarini intellektual salohiyatini rivojlantirish maqsadida vazirlik tomonidan 2024-yil 20-iyun kuni “Zakovat” intellektual o‘yini “Vazir kubogi” o‘tkazildi. Turnirda 72 ta jamoa (420 nafar) ishtirok etdi.</p> <p>Joriy yilning 25-29-avgust kunlari Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumanida ta‘lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida “Zakovat” intellektual o‘yini hamda “O‘quvchilar ligasi”ning hududiy bosqichlari g‘oliblari va iqtidorli 196 nafar yoshlar uchun “Intellektual maktab” mavsumiy oromgoh loyihasi amalga oshirildi.</p> <p>2024-yil 19-20-oktabr kunlari umumta‘lim maktab o‘quvchilari o‘rtasidagi “Zakovat” turnirining Respublika bosqichi bo‘lib o‘tdi.</p> <p>Maktablardagi "Zakovat" klublarining faoliyati eng yaxshi, deb topilgan 30 nafar koordinatorlari planshet bilan taqdirlandi.</p> <p>Shuningdek, amaldagi tartibga ko‘ra, Respublikadagi barcha maktablar "Zakovat" klublari koordinatorlari Direktor jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan oylik ish haqining 50 foizi miqdorida bir marta moddiy rag‘batlantiriladi.</p> <p>“Zakovat” intellektual o‘yining saralash bosqichlarida 100 mingdan ortiq bilimdon o‘quvchilar bilimini sinovdan o‘tkazdi.</p>
16	<p>Iste‘dodli yoshlarni xorijning eng nufuzli oliygohlariga o‘qishga yuborish.</p> <p><i>1-ilova 84-band.</i></p>	<p>Iste‘dodli 500 nafar yoshlarni xorijning eng nufuzli oliygohlariga o‘qishga yuborish bo‘yicha tanlov o‘tkazish. Bunda:</p> <p>xorijiy oliy ta‘lim muassasalarining ta‘lim dasturlarida qatnashish maqsadida Jamg‘arma tomonidan ochiq stipendiya tanlovlari e‘lon qilish va o‘tkazish;</p> <p>“El-yurt umidi” jamg‘armasining</p>	2024 yil davomida	“El-yurt umidi” jamg‘armasi-ga ajratilgan mablag‘lar doirasida	<p>“El-yurt umidi” jamg‘armasi</p> <p>A.Bekmurodov, Iqtisodiyot va moliya vazirligi</p> <p>O. Fozilkarimov, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi,</p> <p>A.Musayev, Yoshlar ishlari</p>	<p>BAJARILMOQDA.</p> <p>Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan “El-yurt umidi” jamg‘armasining ochiq stipendiya tanlovlari haqida maktab o‘quvchilari orasida keng targ‘ibot ishlari olib borilmoqda.</p> <p>Jumladan, vazirlikning rasmiy ijtimoiy sahifasida “El-yurt umidi” jamg‘armasining navbatdagi 2-ochiq stipendiya tanlovida siz ham faol ishtirok eting! sarlavhasi ostida e‘lon berildi.</p> <p>Bundan tashqari, Maktabgacha va maktab ta‘limi</p>

		ochiq stipendiya tanlovlari tartibi bilan bog'liq yangiliklarni yoshlar orasida keng targ'ib etishga qaratilgan seminarlar tashkil etish; stipendiya tanlovi g'oliblarini xorijiy davlatlarga ta'lim olishga yuborishni tashkil etish.			agentligi A.Sa'dullayev, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi K.Sharipov, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi X.Umarova, Tashqi ishlar vazirligi B.Saidov	vazirining "El-yurt umidi" jamg'armasining xorijda pedagogika, lingvistika, psixologiya va gumanitar fanlar yo'nalishlarida ta'lim olayotgan stipendiatlari bilan onlayn muloqoti tashkil etildi. Ushbu uchrashuvda 10 dan ortiq xorijiy mamlakatlarning top universitetlarda tahsil olayotgan 65 nafar stipendiatlar ishtirok etdi. 2024-yil davomida "El-yurt umidi" jamg'armasining ochiq stipendiya tanlovlari tartibi bilan bog'liq yangiliklarni 412 103 nafar bitiruvchi o'quvchiga yetkazildi.
17	Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish bo'yicha ishlarni davom ettirish <i>1-ilova 85-band.</i>	Davlat organlari rahbarlari va yoshlarning to'g'ridan-to'g'ri ochiq muloqotini yo'lga qo'yish maqsadida "Rahbar va yosh xodimlar", "Deputat va yoshlar", "Tadbirkorlar va yoshlar" uchrashuvlarini tashkil etish.	2024-yil iyundan boshlab aniq reja-grafik asosida	–	Yoshlar ishlari agentligi A.Sa'dullayev, Yoshlar ishlari agentligi so'roviga ko'ra vazirlik va idoralar, Oliy Majlis palatalari (<i>kelishuv asosida</i>), Savdo-sanoat palatasi D.Vaxobov	BAJARILMOQDA. 2024-yil yanvar oyida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan 20 ta bandan iborat chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Respublika hududiy va mahalliy sektor rahbarlari tomonidan Janubiy Koreya, Germaniya, Qirg'iziston, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya Respublikalari kabi davlatlarda o'qish uchun ketgan 928 nafar, ishlash uchun ketgan 3 031 nafar, jami 52 nafar jami 4 011 nafar yoshlar bilan onlayn platformalar orqali muloqot qilindi. Muloqot davomida Yoshlar tomonidan jami 983 ta taklif va muammolar ilgari surdi. Xususan, 26 ta shaxsiy hujjatlarni (pasport va boshqa) qayta tiklash, 49 ta qaytish uchun yo'lkira to'lab berilishi, 592 ta qaytgandan keyin yuqori maoshli ish bilan ta'minlash, 203 ta yuqori daromad keltiruvchi boshqa xorijiy mamlakatga borishga yordamlashish va 100 ta to'lov-kontrakt mablag'ini qoplash, 13 ta kredit olish kabi muammolar ko'tarildi. Joriy yilning 5-7-sentabr kunlari Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri tizimdagi yoshlar hamda Toshkent shahar Bektimir tumanidagi og'ir toifadagi yoshlar bilan ochiq muloqot tashkil etildi. Shuningdek, tizimda faoliyat olib borayotgan yosh pedagoglar va yoshlar bilan "Vazir va yoshlar" uchrashuvi doimiy o'tkazilib borilmoqda.
18	"Bir million dasturchi" loyihasini amalga oshirish orqali 15 ming nafar iqtidorli	1. "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida platformaning professional kurslarida yoshlarni ta'lim olishini yo'lga qo'yish.	2024-yil davomida	Ijrochilar mablag'lari	Raqamli texnologiyalar vazirligi Sh.Shermatov, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	BAJARILMOQDA. 1. "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida "Coursera" platformasi orqali 92 ming nafardan ortiq o'quvchi ro'yxatdan o'tib, ularning 84 ming

	<p>yoshlarni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash.</p> <p><i>1-ilova 87-band.</i></p>	<p>2. Platformada ta'lim oladigan yoshlar qamrovi bo'yicha Hududlar kesimida samaradorlik ko'rsatkichlarini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p> <p>3. Platforma imkoniyatlari va undan samarali foydalanish bo'yicha hududlardagi ta'lim tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda keng targ'ibot ishlarini amalga oshirish.</p> <p>4. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida eng yaxshi natija ko'rsatgan yoshlar va ishtirokchilarni munosib rag'batlantirib borish.</p>	<p>2024-yil mart</p> <p>2024-yil mart</p> <p>2024-yil dekabr</p>		<p>X.Umarova, Yoshlar ishlari agentligi A.Sa'dullayev, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat va Toshkent shahar hokimliklari</p>	<p>nafari xalqaro sertifikatlarni qo'lga kiritdi. BAJARILDI. 2. Loyiha doirasi hozirgi kunga qadar 501 580 nafar maktab o'quvchisi jalb etilgan, shulardan 414 913 nafari xalqaro bitiruvchi sertifikatiga ega bo'lishdi. BAJARILDI. 3. Platforma imkoniyatlari va undan samarali foydalanish bo'yicha maktablarda targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi. Shuningdek, vazirlikning rasmiy ijtimoiy tarmoqlari orqali ham keng yoritildi. Vazirlikning 2024-yil 6-iyundagi 06-38-1095-sonli xati bilan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga yuborildi.</p>
34-maqсад: Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish						
19	<p>Yoshlarni ommaviy sport tadbirlariga jalb qilish.</p> <p><i>1-ilova 88-band.</i></p>	<p>1. Mahallalar va ta'lim muassasalarida sport turlari bo'yicha ommaviy sport musobaqalari qamrovini 10 mln nafarga yetkazish. Bunda: mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlar o'rtasida; umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida; professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida; oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish.</p> <p>2. Aholining yosh toifalari bo'yicha barcha hududlarida har yili jismoniy tayyorgarlik sinovlarini o'tkazish.</p>	<p>2024-yil aprel-dekabr</p> <p>2024-yil davomida</p>	<p>Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasida nazarda tutilgan mablag'lar hamda ijrochilar mablag'lari</p>	<p>Sport vazirligi A.Ikramov, Yoshlar ishlari agentligi A.Sa'dullayev, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi K.Sharipov, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi X.Umarova, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat va Toshkent shahar hokimliklari</p>	<p>BAJARILMOQDA. 1. Yoshlarni ommaviy sport tadbirlariga jalb qilish maqsadida Sport vazirligi va Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida tashkil etiladigan sport musobaqalarini o'tkazish tartibi to'g'risida" Nizom tasdiqlandi. Xususan: Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida joriy yilda jami 43 ta sport musobaqalari o'tkazilib, unda 7 mln 642 mingdan (shundan 2 mln 827 ming qizlar) ortiq o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi. Ma'lumot uchun: "Quvnoq startlar", Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri kubogi, "Kurash milliy g'ururimiz", "Futbolimiz kelajagi sening qo'lingda", "Bolajon va Yoshlik sport jamoalari", "Milliy sport turlari va xalq o'yinlari", Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan musobaqalar hamda viloyat birinchiliklari sport musobaqalari. 2. Sport sinovlarini qabul qilish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish va ma'lumotlar bazasini doimiy</p>

						<p>yuritib borish maqsadida “Sport sinovlari” axborot tizimi (my.sport.uz) Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining platformasiga integratsiya qilindi.</p> <p>Bugungi kunga kelib, 3 mln. 833 ming 308 nafar (59 foiz) o’quvchi platforma orqali ro’yxatdan o’tib, 1 mln. 369 ming 361 nafari (35,7 foiz) ixtiyoriy sinovlarda, 1 mln. 333 ming 328 nafari maxsus sinovlarni topshirdi.</p>
20	<p>Sport bilan shug’ullanishga jalb qilingan aholi ulushini oshirish.</p> <p><i>1-ilova 89-band.</i></p>	<p>Aholini sport turlariga jalb qilish orqali jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanuvchilar qamrovini 26 foizdan 28 foizga yetkazish.</p> <p>Bunda:</p> <p>hududlarda aholining jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug’ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;</p> <p>mahallalarda aholining ommaviy sport bilan shug’ullanishlari uchun moddiy-texnik bazani mustahkamlash;</p> <p>sport inshootlarini zamonaviy sport jihozlari bilan ta’minlash.</p>	2024-yil davomida	Ijrochilar mablag’lari	<p>Sport vazirligi A.Ikramov, Yoshlar ishlari agentligi A.Sa’dullayev, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi X.Umarova, Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat va Toshkent shahar hokimliklari</p>	<p>BAJARILMOQDA.</p> <p>Umumta’lim maktablarida o’quvchilarga dzyudo bo’yicha qo’shimcha shart-sharoit yaratish maqsadida Xalqaro dzyudo federatsiyasi tomonidan 30 ta zamonaviy dzyudo tatamisi va 900 ta kimonolar yetkazib berildi. Ushbu maqsadlar uchun vazirlik tomonidan yo’l xarajatlari logistikasi uchun 887,5 mln. so’m mablag’ yo’naltirildi.</p> <p>O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-dekabrda PQ-449-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Yoshlar siyosati va sport vazirligi hamda O’zbekiston gimnastika federatsiyasi bilan hamkorlikda “Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri kubogi” musobaqasi 2024-yilning 7-oktyabridan 3-noyabrigha qadar uch bosqich (<i>tuman (shahar), hududiy va respublika</i>)da o’tkazilib, 84 mingga yaqin o’quvchi-qizlar qamrab olinishiga erishildi.</p> <p>Bundan tashqari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-avgustdagi “O’zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3906-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida vazirlikning 2018-yil 13-avgustdagi 200-son buyrug’i tasdiqlanib, respublikadagi 150 ta umumiy o’rta ta’lim maktablarida tajriba tariqasida o’quvchilarni shaxmatga o’qitish tizimi yo’lga qo’yildi.</p> <p>O’zbekiston shaxmat federatsiyasi bilan birgalikda umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun “Shaxmat bo’yicha darslik” va boshqa o’quv-metodik qo’llanmalarni ishlab chiqish bo’yicha ishchi guruhi tuzilib, ‘Umumiy o’rta ta’limning jismoniy tarbiya fani o’quv dasturi’ (shaxmatga yo’naltirilgan 2-sinflar uchun) tasdiqlandi.</p> <p>Ushbu dasturga muvofiq 2018-2019 o’quv yili davomida 34 soatlik reja asosida o’quvlar o’tkazilib,</p>

						<p>ularga jami 12 138 nafar o'quvchilar qamrab olindi.</p> <p>Maktablarining ta'lim-tarbiya jarayonida shaxmat saboqlari sifatli tashkil etilishini nazorat qilish va ko'maklashish hamda shaxmat saboqlarini olib borish uchun o'qituvchi va o'quvchilarga zarur shart-sharoitlar yaratildi.</p> <p>Shu bilan birga, gimnastika bo'yicha vazirlik tizimidagi umumta'lim maktablarida gimnastika sport turlari bo'yicha 2 282 ta tashkil etilgan sport seksiyalarida 27 384 nafar o'quvchilarimiz qamrab olingan.</p> <p>Respublikamizning 208 ta tuman (shahar)larida gimnastikaga ixtisosligi yuqori bo'lgan 245 ta umumta'lim maktablari belgilab olindi va ushbu maktablarni joriy yilda 56 ta gimnastika gilami, 4 900 ta gimnastika arg'amchisi, 2 450 ta gimnastika koptogi va 2 450 ta gimnastika obruchlari bilan 3 mlrd. so'm miqdoridagi mablag'lar hisobiga ta'minlandi.</p> <p>Natijada ushbu maktablarimizda yana 1050 ta qo'shimcha gimnastika sport seksiyalari tashkil etilib, 12 250 nafar o'quvchi-qizlarni jalb qilish rejalashtirildi.</p> <p>Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoniga asosan vazirlik tizimidagi umumta'lim maktablarini birlamchi sport jihozlari bilan ta'minlash maqsadida 2023-yilda vazirlik huzuridagi "Ta'minot va logistika xizmati" DUK tomonidan tender (tanlov) savdolari o'tkazilib, unda g'olib bo'lgan yetkazib beruvchilar bilan jami 60,34 mlrd. so'mlik shartnomalar imzolangan va har bir maktabga 10 donadan jami 406 ming 520 dona futbol, voleybol, basketbol, gandbol to'plari hamda 2 donadan jami 20 ming 326 dona yengil atletika sekundomerlari umumta'lim maktablariga to'liq yetkazib berildi.</p> <p>2024-yilda esa umumta'lim maktablarini birlamchi sport anjomlari bilan ta'minlash uchun byudjet hisobidan 62,0 mlrd. so'm mablag' ajratilgan.</p>
21	Sportning milliy turlari, xususan, milliy kurash va belbog'li kurashni aholi o'rtasida yanada ommalashtirish.	Milliy kurash va belbog'li kurash bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida, professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida, oliy ta'lim muassasalari	2024-yil davomida	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasida	Sport vazirligi A.Ikramov, Yoshlar ishlari agentligi A. Sa'dullayev,	BAJARILMOQDA. Milliy sport turlarini o'quvchilar orasida yanada targ'ib etishda an'anaviy tarzda "Kurash-milliy g'ururimiz" shiori ostida sportning kurash turidan to'rt bosqichda musobaqalar o'tkazib kelinmoqda.

	<p><i>1-ilova 91-band.</i></p>	<p>talabalari o'rtasida umummilliy musobaqalarni tashkil qilish.</p>		<p>nazarda tutilgan manbalar hamda ijrochilar mablag'lari</p>	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi K. Sharipov, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi X. Umarova</p>	<p>2024-yilning fevral oyida belbog'li kurash bo'yicha uch bosqichli musobaqalar o'tkazilib 182 mingdan ziyod o'quvchilar ishtirok etdi. Musobaqaning final bosqichi joriy yilning 25-26-fevral kunlari Farg'ona shahrida o'tkazildi.</p> <p>2024-yilning fevral-mart oylari mobaynida umumta'lim maktablarida milliy sport turlari (<i>kurash, belbog'li kurash, o'zbek jang san'ati va turon yakkakurashi</i>)ni targ'ib etish maqsadida hududlardagi sport bo'yicha taniqli sportchilar ishtirokida o'quvchilar hamda jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari o'rtasida davra-suhbatlari, trening va mahorat saboqlari o'tkazildi.</p> <p>Bugungi kunda maktablarning 5-11-sinf o'quvchilari uchun o'tkazib kelinayotgan jismoniy tarbiya fani darslarining o'quv dasturiga ham kurash sport turi kiritilgan. Shuningdek, darsdan tashqari vaqtda maktablarda jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari tomonidan tashkil etilgan 2 148 ta kurash sport seksiyalariga 32 498 nafar o'quvchilar (shundan 11 439 nafar qizlar) qamrab olingan. Maktab o'quvchilari orasidan kurash bo'yicha iqtidorlarni aniqlash, milliy terma jamoamiz safiga munosib zaxira nomzodlarni tanlab olish maqsadida hozirda 205 ta umumta'lim maktablariga kurash sport anjom va jihozlari (kurash gilami, maneken, meditsinbol, arqon, shved devori) yetkazib berilgan. Shuningdek, vazirlikning 2022-yil 17-martdagi 85-son buyrug'iga asosan "Kurash - milliy g'ururimiz" shiori ostida uch bosqichda 5-6-sinf, 7-8-sinf va 9-11-sinf o'quvchilari o'rtasida alohida vazn toifalari bo'yicha musobaqalar tashkil etilib, 655 mingdan ziyod maktab o'quvchilarining qamrab olinishiga erishildi.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sport vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari o'rtasida "Milliy kurash va belbog'li kurash bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida, professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida umummilliy sport musobaqalarini o'tkazish to'g'risida" qo'shma qaror qabul qilinmoqda. Mazkur musobaqalar 2024-yilning oktabr – noyabr oylari mobaynida 4 bosqichda o'tkazilishi rejalashtirilgan.</p>
--	---------------------------------------	--	--	---	--	---

38-maqсад: Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash						
22	<p>Xorijiy mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan o'zbek tili o'qituvchilarining masofaviy shaklda malakasini oshirish, ularga uslubiy yordam berish tizimini yo'lga qo'yish.</p> <p>1-ilova 102-band.</p>	<p>1. Xorijda faoliyat ko'rsatayotgan o'zbek tili o'qituvchilari malakasini oshirishga mo'ljallangan o'quv-dasturini ishlab chiqish.</p> <p>2. Xorijda faoliyat ko'rsatayotgan o'zbek tili o'qituvchilarining ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>3. Xorijda faoliyat ko'rsatayotgan o'zbek tili o'qituvchilarining masofaviy shaklda malakasini oshirish ishlarini yo'lga qo'yish.</p>	<p>2024-yil sentabr</p> <p>2024-yil oktabr</p> <p>2024-yil noyabr</p>	<p>Hisob-kitobga asosan O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari</p>	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi X. Umarova Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi K.Sharipov, Tashqi ishlar vazirligi B.Saidov</p>	<p>BAJARILDI.</p> <p>1. Xorijda faoliyat ko'rsatayotgan o'zbek tili o'qituvchilarining malakasini oshirish o'quv-dasturi ishlab chiqilib, tasdiqlandi.</p> <p>2. Tashqi ishlar vazirligi bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatayotgan o'zbek tili o'qituvchilari ro'yxati va ma'lumotlari shakllantirildi.</p> <p>BAJARILMOQDA.</p> <p>3. O'quv dasturiga muvofiq qisqa muddatli malaka oshirish kurslarining videokontentlari ishlab chiqildi va "Uzluksiz kasbiy rivojlantirish" elektron platformasiga joylashtirildi.</p> <p>Mazkur platforma orqali xorijda faoliyat ko'rsatayotgan o'zbek tili o'qituvchilari uchun masofaviy shaklda malaka oshirish imkoniyatlari yaratildi.</p> <p>46 nafar xorijlik o'zbek tili o'qituvchilari malakasini oshirildi.</p> <p>Natijada xorijiy mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan o'zbek tili o'qituvchilarining masofaviy shaklda malakasini oshirish, ularga uslubiy yordam berish tizimi yo'lga qo'yildi.</p>
II. BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASH						
49-maqсад: Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish						
23	<p>Xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar va jamg'armalarning grant mablag'larini jalb qilishni jadallashtirish.</p> <p>2-ilova 19-band.</p>	<p>1. 2024-yilda 1 mlrd dollarlik grant mablag'larini jalb qilish bo'yicha kelishuvlarga erishish (bitimlar va memorandumlar imzolash).</p> <p>2. Grant mablag'larini jalb qilish bo'yicha rejalarni O'zbekistonning xorijiy davlatlardagi elchilariga sohalar kesimida taqsimlab berib, jalb qilingan grant mablag'lari bo'yicha hisobotlarini eshitib borish.</p>	<p>2024-yil davomida</p> <p>2024-yil davomida har oyda</p>	<p>–</p>	<p>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi L.Kudratov, vazirlik, idora va xo'jalik birlashmalari, mahalliy hokimliklar Tashqi ishlar vazirligi B.Saidov, O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi elchilari</p>	<p>BAJARILMOQDA.</p> <p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida grant mablag'larini jalb qilish bo'yicha O'zbekistonning xorijiy davlatlardagi elchilari bilan birgalikda amalga oshirilayotgan tadbirlar bo'yicha hisobotlar Bosh vazir hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga kiritilib borilmoqda.</p> <p>(02.10.2024-yil, 01-44-393, hamda 07.10.2024-yil 05-44-3625-sonli xatlar).</p> <p>Shuningdek, vazirlik tomonidan grant mablag'larini jalb qilish bo'yicha loyiha konsepsiyalari ishlab chiqilib, kelishish va xorijiy hamkorlarga yuborish uchun Tashqi ishlar vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga taqdim etilgan.</p> <p>(05.04.2024-yil 229-xdfu, 05.04.2024-yil 231-xdfu, 02.05.2024-yil 284, 26.08.2024 579-xdfu-sonli xatlar).</p>

						<p>Bundan tashqari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan sohaga 500 mln. dollar qiymatida grant mablag'larini jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, Tashqi ishlar vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan kelishilib, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga taqdim etildi.</p> <p>(26.06.2024-yil 05-19-1774-sonli xat).</p>
61-maqсад: Infratuzilma loyihalarini barqaror va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlash						
24	<p>Ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish.</p> <p><i>2-ilova 93-band.</i></p>	<p>618 ta umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablar, 176 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlarini amalga oshirish.</p> <p>Xususan:</p> <p>umumta'lim maktablarida 175 mingdan ortiq yangi o'quv o'rni tashkil etish, 100 mingdan ortiq o'quv o'rnini mukammal ta'mirlash;</p> <p>ixtisoslashtirilgan maktablarda 3,5 mingdan ortiq yangi o'quv o'rni tashkil etish;</p> <p>maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5,5 mingdan ortiq yangi o'rin tashkil etish, 17 mingdan ortiq o'rinni rekonstruksiya qilish, 1,3 mingdan ortiq o'rinni mukammal ta'mirlash.</p>	2024-yil avgust-dekabr	Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi-ni rivojlantirish dasturi doirasida respublika byudjeti mablag'lari	<p>Iqtisodiyot va moliya vazirligi</p> <p>I.Norkulov, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi</p> <p>B. Zakirov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p> <p>X.Umarova, Sog'liqni saqlash vazirligi</p> <p>A.Xudayarov, Madaniyat vazirligi</p> <p>O. Nazarbekov, Sport vazirligi</p> <p>A. Ikramov</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-404-son qaroriga asosan jami 795 ta umumta'lim obyektlarda qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish belgilangan.</p> <p>Mazkur ishlar uchun davlat byudjetidan 5,4 trl. so'm mablag' yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.</p> <p>Bunda, 176 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlarini amalga oshirish, 30 ta yangi maktab qurish, 518 ta maktabni rekonstruksiya qilish va 60 ta maktablarni mukammal ta'mirlash ishlari bajarilib, natijada 180 mingdan ortiq yangi o'quvchi o'rinlari yaratilsa, mavjud 87 mingdan ortiq o'quvchi o'rinli binolar mukammal ta'mirlanadi hamda 95 ta yangi sport zali binolari barpo etiladi.</p> <p>Shuningdek, 10 ta ixtisoslashtirilgan maktablar (6 ta yangi qurilish, 4 ta rekonstruksiya)da qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilib 3 967 o'quvchi o'rni yaratiladi.</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotlari</p> <p>Bugungi kunda, "Infratuzilmani rivojlantirish injiniring kompaniyasi" DM buyurtmachiligida yildan-yilga o'tuvchi 8 ta obyektning 6 tasida qurilish ishlari yakuniga yetkazilib foydalanishga topshirilgan.</p> <p>Qolgan obyektlar 1-noyabrga qadar yakunlanib foydalanishga topshirilishi ko'zda tutilgan.</p> <p>Shuningdek, yangidan boshlanuvchi 168 ta obyektning 1 tasida qurilish ishlari yakunlangan, qolgan obyektlar noyabr-dekabr oylariga qadar yakuniga yetkazilib, foydalanishga topshirilishi ko'zda tutilgan.</p> <p>Bundan tashqari, rekonstruksiya qilinishi ko'zda tutilgan 130 ta obyektning 25 tasida qurilish ishlari yakuniga yetkazilib foydalanishga topshirilgan. 58 tasi 1-noyabrga qadar, 47 tasi esa 10-dekabr</p>

					<p>qadar yakuniga yetkazilib, foydalanishga topshirilishi ko'zda tutilgan.</p> <p>Umumta'lim maktablari:</p> <p>Bugungi kunga kelib, yildan-yilga o'tuvchi 37 ta obyektlarda Andijon, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyalari buyurtmachiligida qurilish ta'mirlash ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Mazkur obyektlardan 35 tasida qurilish ishlari yakuniga yetkazilib foydalanishga topshirilgan.</p> <p>Bundan tashqari, yangidan boshlanuvchi 571 ta obyektlarda qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlariga Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzurida tashkil etilgan "Infratuzilmani rivojlantirish" injiniring kompaniyasi DM buyurtmachi etib belgilangan.</p> <p>Bugungi kunda, 201 ta obyektida qurilish ishlari yakuniga yetkazilib foydalanishga topshirilgan, 301 tasi 1-noyabrga qadar, 69 tasi 10-dekabrga qadar yakuniga yetkazilib, foydalanishga topshirilishi ko'zda tutilgan.</p> <p>Ixtisoslashtirilgan maktablar:</p> <p>Bugungi kunda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" IKlar buyurtmachiligida yildan-yilga o'tuvchi 2 ta muassasalarda PQ-404-son qarorga asosan 2024-yil uchun 21,9 mlrd. so'm mablag' yo'naltirilgan bo'lsa, shunga nisbatan 20,8 mlrd. so'mlik (95 %) qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan bo'lsa,</p> <p>Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" IKlar buyurtmachiligida (Renessans oromgohi) 2-bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan qurilish-ta'mirlash ishlarining loyiha-smeta hujjatlari qayta ko'rib chiqilib, ekspertiza xulosalari olingan. Manzilli ro'yxat tasdiqlanib, ta'mirlash ishlari boshlangan.</p> <p>Shuningdek, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzurida tashkil etilgan "Infratuzilmani rivojlantirish" injiniring kompaniyasi buyurtmachiligida yangidan boshlanuvchi 8 ta obyektlarning loyiha-smeta hujjatlari qayta ko'rib chiqilib, 7 tasining loyiha hujjatlari ekspertiza asosida</p>
--	--	--	--	--	--

						tender savdolarini o'tkazib qurilish ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Qolgan Toshkent viloyatidagi 1 ta obyekt O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2024-yil 7-avgustdagi 86-sonli bayoni 2-ilovasi bilan Dasturdan chiqarilib, mazkur obyekt uchun ajratilgan limitlar ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash bo'yicha taqsimlanmagan limitlarga yo'naltirilgan.
IV. QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH, XALQ XIZMATIDAGIDAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH						
82-maqсад: Xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini oshirish						
25	Davlat organlari va aholi o'rtasida "qayta aloqa" tizimini yanada takomillashtirish va aholi muammolarini hal etish jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish. <i>4-ilova 22-band.</i>	Davlat organlari va tashkilotlarining rahbarlari, shu jumladan hokimlar muntazam ravishda chekka hududlardagi aholini videokonferensaloqa vositasida qabul qilish amaliyotini keng yo'lga qo'yish.	2024-yil davomida	–	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasi U.Muxammadiyev , Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Raqamli texnologiyalar vazirligi Sh. Shermatov	BAJARILMOQDA. Joriy yil davomida vazir o'rinbosarlari tomonidan 12 ta hududdan (<i>Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Namangan, Sirdaryo, Jizzax, Xorazm, Navoiy, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyati</i>) vazirlikka murojaat qilgan 43 nafar fuqaro bilan videokonferensaloqa vositasida onlayn qabul tashkil etilib, ularning murojaati ijobiy hal etildi.
V. "XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT" TAMOYILIGA ASOSLANGAN SIYOSATNI IZCHIL DAVOM ETTIRISH						
97-maqсад: Jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish						
26	Yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat g'oyasi atrofida birlashtirish hamda Vatan himoyachilarini tarbiyalashda uzviylikni ta'minlash. <i>5-ilova 17-band.</i>	1. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha ishlab chiqilgan kompleks dasturga muvofiq amaliy ishlarni jadallashtirish. 2. "Vatan tayanchi" otryadlari o'rtasida "Vatanparvarlar" harbiy-sport musobaqalarini o'tkazish. 3. Hududlarda "Vatanparvarlar" harbiy-vatanparvarlik bog'larini barpo etish hamda mavjud bog'larni takomillashtirish yuzasidan harbiy-ma'muriy sektorlar rahbarlari bilan hamkorlikda amaliy ishlarni tashkil etish. 4. Maktabgacha va maktab ta'limi	Kompleks dasturga asosan 2024-yil may 2024-yil noyabr 2024-yildan	Alohida hisob-kitoblarga asosan, Mudofaa vazirligi hamda Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarga har yili ajratiladigan byudjet mablag'lari doirasida, byudjetdan tashqari mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan	Mudofaa vazirligi B.Kurbanov , Tegishli vazirlik va idoralar, harbiy-ma'muriy sektorlar, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi X.Umarova	BAJARILMOQDA. 1. Maktabgacha va maktab vazirligi tomonidan 2024-yil 14-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga 04-27-263-son xat yuborildi. Bundan tashqari, 2023-yil yakuniga qadar Mudofaa vazirligi bilan 10 163 ta maktablarda 9 969 nafar 10-11-sinf o'quvchi orasidan " Vatan tayanchi " otryadlari tashkil etildi. Ushbu otryadlarga 197 160 nafar o'quvchilar qamrab olgan. BAJARILDI. 2-3. "Vatan tayanchi" harakatining "Vatanparvarlar" harbiy-sport musobaqasi ikki bosqichda o'tkazilib, 6 968 ta maktabning 66 ming nafar o'quvchi-yoshlari ishtirok etdi. "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi, "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tarixi

		<p>vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining ta'lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tadbirlarni tashkil etish.</p>	<p>boshlab</p>	<p>boshqa manbalar, Harbiy-ma'muriy sektorlarni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari</p>		<p>Davlat muzeyi", va "Qatag'on qurbonlari xotirasi" davlat muzeyiga 106 ming nafar o'quvchilarining tashriflari amalga oshirildi.</p> <p>O'quvchilar o'rtasida "Vatanparvarlar", "Yosh chegarachilar", "Yosh qutqaruvchilar", "Yosh gvardiyachilar" hamda "Yashil chiroq" harbiy-sport musobaqalari o'tkazilmoqda. 212 560 nafar o'quvchilar ushbu harbiy-sport musobaqalariga qamrab olish ko'zda tutilgan.</p> <p>Joriy yilning may oyida "Vatanparvarlar", "Yosh chegarachilar", "Yosh gvardiyachi" harbiy-sport musobaqalarining respublika bosqichi tashkil etildi.</p> <p>BAJARILDI.</p> <p>4. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi 95 ta maktab va maktab-internatlarda "Vatan tayanchi" harbiy guruhlarini tashkil etilgan bo'lib, 3 125 nafar yoshlar harakatga a'zo qilingan, shundan, 886 nafarini qizlar tashkil etadi.</p> <p>2024-yilning 1-may holatiga 110 ta maktab va maktab-internatlarda "Vatan tayanchi" harbiy guruhlarini tashkil etilmagan. Hozirgi kunda ushbu maktab va maktab-internatlar tomonidan "Vatan tayanchi" guruhlarini tashkil etish yuzasidan Mudofaa vazirligining hududlardagi tegishli bo'linmalariga arizalar berilgan.</p> <p>Joriy yilning 2-3-may kunlari Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani 532-safarbarlik chaqiruv rezervi batalyonida Ijod maktablari o'quvchilari o'rtasida "Turon yo'lbarzlari" harbiy sport-musobaqalari o'tkazilib jami 63 nafar o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi.</p> <p>Musobaqaning Agentlik bosqichida 9 ta jamoa o'zaro bellashib Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining "Yosh gvardiyachilar" jamoasi 1-o'rin; Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabining "Vatanparvar" jamoasi 2-o'rin, Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabining "Sohibqiron" jamoasi 3-o'rinni egalladi.</p>
--	--	---	----------------	--	--	---

98-maqsad: Favqulodda vaziyatlar va global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq aholi hayotiga xavf soluvchi ofatlarning oldini olish						
27	<p>Aholini favqulodda vaziyatlar, kuchli zilzilalar va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tabiiy ofatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorlash tizimini rivojlantirish.</p> <p>5-ilova 21-band.</p>	<p>1. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholi, shu jumladan, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar mutaxassislarini xizmat va ishdan ajralmagan holda (masofadan turib) ish joylarida o'qitish tizimini joriy qilish.</p> <p>2. Bog'cha, maktab, professional va oliy ta'lim muassasalarida zilzila va boshqa favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga o'rgatishga mo'ljallangan qo'llanma va videoroliklarni tayyorlash.</p> <p>3. Fuqarolarni kuchli yirik favqulodda vaziyatlar, xususan kuchli zilzilalar oqibatlarini bartaraf etishda volontyorlikka o'rgatishga mo'ljallangan masofaviy kurslarni yo'lga qo'yish.</p> <p>4. Aholini zilzilada amaliy harakatlanishga o'rgatishga mo'ljallangan mobil o'quv trenajyorlari (zilzila simulyatorlari) orqali tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish.</p>	2024-yil dekabr	<p>Favqulodda vaziyatlar vazirligiga har yili ajratiladigan byudjet mablag'lari doirasida, shuningdek, vazirlikning byudjetdan tashqari mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan</p> <p>Innovatsion rivojlanish agentligi mablag'lari, Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligi va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan</p>	<p>Favqulodda vaziyatlar vazirligi</p> <p>A.Kuldashv, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p> <p>X.Umarova, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>K.Sharipov, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi</p> <p>B.Musayev, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>	<p>BAJARILMOQDA.</p> <p>2. Fuqaro muhofazasi institutida tuzilgan ishchi guruhi tarkibida ishtirok etish uchun Vazirlik huzuridagi Respublika ta'lim markazi Geografiya fani metodisti Hojiyeva Mayram Toshpo'latovnani ishtirok etishi belgilangan. (06.03.2024-yildagi, 05-45-334-sonli xat)</p> <p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi Geografiya fani metodisti M.Hojiyeva Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi institutida tuzilgan ishchi guruh tarkibida kuchli zilzilalarda harakatlanishga o'rgatishga mo'ljallangan elektron platforma o'quv dasturini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etdi.</p> <p>Fuqaro muhofazasi instituti professor-o'qituvchilari tomonidan jami 17 turdagi tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda aholining to'g'ri harakatlanish tartibi bo'yicha eslatmalar tayyorlanishi boshlandi. Animatsion videorolik tayyorlash yuzasidan tijorat takliflarini olish uchun tegishli tashkilotlarga aloqa xatlari yuborildi</p> <p>(2024-yil 29-fevraldagi 1/6/27-68-son xat).</p> <p>Hududiy boshqarmalarga zilzila va boshqa favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga o'rgatishga mo'ljallangan, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga o'rgatuvchi qo'llanmalar ishlab chiqib, mavjud videoroliklar zaxirasi bilan taqdim etish bo'yicha ko'rsatma yuborildi (2024-yil 27-fevraldagi 2/5/41-414-son).</p> <p>“Dunyo bo'ylab” telekanali bilan hamkorlikda fuqarolarni favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga o'rgatuvchi videoroliklar tayyorlashda hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasiga xat yuborilib, (2024-yil 2-martdagi 2/4/41-689-son), 2024-yil 25-martdan 5 ta mavzudagi videoroliklarni suratga olish ishlari boshlandi hamda “Zilzila” va “Qor ko'chkisi” mavzularidagi rolik loyihalari tayyorlandi.</p>

					<p>“Dunyo bo‘ylab” telekanali bilan hamkorlikni davom ettirish yuzasidan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasiga xat yuborilib (2024-yil 13-apreldagi 2/4/41-1153-son), yana 4 ta mavzuda videoroliklar tayyorlash ishlari boshlandi.</p> <p>Fuqaro muhofazasi instituti tomonidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan hamkorlikda tayyorlangan aholini favqulodda vaziyatlarda, jumladan zilzilada to‘g‘ri harakatlanishni o‘rgatishga mo‘ljallangan surdotarjimon orqali elektron qo‘llanmalar, brayl alifbosida chop etilgan o‘quv adabiyotlarini ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, hududlardagi maxsus kutubxonalar mutasaddilariga yetkazish maqsadida 2024-yil 14-avgust kuni o‘quv seminar o‘tkazildi.</p> <p>Tadbirda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Respublika Ko‘zi ojizlar jamiyati va Toshkent shahar bo‘limi vakillari, Toshkent shahridagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar rahbarlari, Respublika Markaziy ko‘zi ojizlar maxsus kutubxonasi va Toshkent viloyati filiali vakillari ishtirok etishdi. Favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanish tartibini o‘rgatishga mo‘ljallangan 17 ta videoroliklarni bog‘cha, maktab, professional va oliy ta’lim muassasalariga (elektron shaklda, diskda) tarqatildi.</p> <p>O‘tkazilgan o‘quv seminar davomida favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanishga o‘rgatuvchi 18 nomlanishdagi brayl alifbosida chop etilgan o‘quv adabiyotlar, 40 ta mavzudagi surdotarjimon orqali elektron qo‘llanmalar ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar hamda Respublika Markaziy ko‘zi ojizlar maxsus kutubxonasi vakillariga taqdim etildi.</p> <p>4. “Aholini zilzilada amaliy harakatlanishga o‘rgatishga mo‘ljallangan o‘quv trenajyorlari (zilzila simulyatori) orqali tayyorlash” vazifasi ijrosini ta’minlash maqsadida, Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan hamkorlikda Fuqaro muhofazasi institutidagi zilzila simulyatori yordamida jami 4 552 nafar aholi zilziladan oldin, zilzila vaqtida va zilziladan so‘ng to‘g‘ri harakatlanishga amaliy tayyorgarlikdan o‘tkazildi.</p>
--	--	--	--	--	---